

## O‘QUVCHILARDA TAFAKKUR VA INTELEKTNI RIVOJLANTIRISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING O‘RNI

*Bozarova Dilafruz Nizamidinovna*

*Samarqand viloyati Paxtachi  
tumani 14-maktab psixologi*

*Xalikova Umida To‘g‘aynazarovna*

*Samarqand viloyati Paxtachi  
tumani 25-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchilarda tafakkur va intellektni rivojlantirishda maktab psixologining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Tafakkur va intellektning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati, ularni shakllantirishning psixologik mexanizmlari hamda maktab psixologi tomonidan amalga oshiriladigan rivojlantiruvchi va korreksion ishlar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** tafakkur, intellekt, bilish jarayonlari, maktab psixologi, o‘quvchi shaxsi, intellektual rivojlanish, psixologik xizmat, ijodiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, psixologik diagnostika.

### KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi yoshlardan yuqori darajadagi tafakkur, ijodkorlik va muammolarni samarali hal etish ko‘nikmalarini talab etmoqda. Shu sababli o‘quvchilarda tafakkur va intellektni rivojlantirish jarayonida maktab psixologining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Tafakkur insonning voqelikni umumlashtirilgan va bilvosita aks ettirish jarayoni bo‘lib, u orqali shaxs muammolarni hal qiladi, xulosalar chiqaradi va yangi bilimlarni egallaydi. Intellekt esa bilimlarni o‘zlashtirish, ularni amaliyotda qo‘llash hamda yangi vaziyatlarga moslashish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu sifatlar bolaning ta’limdagi muvaffaqiyati va kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhim omil hisoblanadi. Maktab psixologi o‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini o‘rganish va baholashda muhim vazifalarni bajaradi. Psixologik diagnostika metodlari yordamida o‘quvchilarning tafakkur xususiyatlari, bilish jarayonlari, qobiliyatlari va individual imkoniyatlari aniqlanadi. Olingan natijalar asosida rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqiladi. Psixolog tomonidan tashkil etiladigan rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Turli intellektual o‘yinlar, muammoli vaziyatlar, mantiqiy topshiriqlar

va treninglar orqali bolalarning fikrlash faolligi oshiriladi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tafakkur va intellekt rivojlanishida motivatsiyaning o'rni katta. Maktab psixologi o'quvchilarda bilim olishga qiziqishni kuchaytirish, o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish va muvaffaqiyatga intilish hissini rivojlantirish bo'yicha ishlar olib boradi. Ijobiy motivatsiya intellektual faoliyatning samaradorligini oshiradi.

Psixolog o'qituvchilar bilan hamkorlikda ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi. Har bir bolaning qobiliyati va rivojlanish sur'ati turlicha bo'lganligi sababli ta'lim jarayonida differensial yondashuvni qo'llash muhimdir. Bu esa o'quvchilarning imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga xizmat qiladi. Ota-onalar bilan hamkorlik ham tafakkur va intellektni rivojlantirishda muhim omillardan biridir. Psixolog ota-onalarga farzandlarning intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, kitob mutolaasiga qiziqtirish, mustaqil fikrlashga undash va uy sharoitida rivojlantiruvchi muhit yaratish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maktab psixologi tomonidan amalga oshiriladigan treninglar va rivojlantiruvchi dasturlar o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, psixologik xizmat faoliyati natijasida o'quvchilarda stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik va kommunikativ ko'nikmalar rivojlanadi. Bu sifatlar ham intellektual rivojlanishning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda bolalar va maktab o'quvchilarining jismoniy va psixik rivojlanishida akseleratsiya (lotincha - «tezlanish») hodisasi ro'y bermoqda. Olimlar akseleratsiya hodisasining ham biologik, ham ijtimoiy sabablarini ko'rsatmoqda:

Birinchi, biologik sabablari oz miqdordagi ionlashgan nurlarning va radio to'lqinlarining ta'siri qishloq xo'jaligi va meditsinada o'sish va rivojlanishni, stimullashtiruvchi biologik faol moddalarning qo'llanilishi, inson ozuqasida hayvon oqsil moddalari miqdorining oshishi.

Ikkinchi, ijtimoiy sabablari - hayot tipining kuchayishi, hayot tonusining ortishi, televideniya, radio va telefon orqali bolalik chog'idan boshlab miyasiga yig'iladigan g'oya ko'p miqdordagi informatsiyalar, ma'lumot oqimining ta'siridan iboratdir [1,77].

Shuni ham aytib o'tish kerakki, narsa va hodisalar o'rtasidagi sabab – natija bog'lanishlarni hamda o'zgarish va taraqqiyot qonuniyatlarini bilganligimiz sababli biz hozirgi paytda bo'lmagan, lekin kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan narsa va hodisalarni oldindan aytib bera olamiz. Bunga ham faqatgina tafakkur vositasi orqali erishish mumkin. Ana shuning uchun tafakkur qilish bir qancha operatsiyalardan, ya'ni

taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiyalash hamda umumlashtirish jarayonlaridan tashkil topadi. Taqqoslash shunday bir aqliy operatsiyasidirki, bunda bir fikrdan ikkita narsani taqqoslab, ular o'rtasida o'xshashlik yoki farq borligini aniqlaymiz. Voqelikni chuqurroq va atroflicha aks ettirish uchun bir-biriga juda o'xshash narsalarning farqini topa bilish va shuning bilan birga bir- biridan keskin farq qiladigan narsalar o'rtasida o'xshashlikni topa bilish qobiliyati juda ham katta ahamiyatga egadir. Bu davr odatda kichik maktab davri yoki boshlang'ich maktab davriga to'g'ri keladi. Bu davrning ahamiyatli tomoni shundaki, bolaning bog'cha yoshi davrida to'plagan shaxsiy tajribasi, til boyligi, bilish imkoniyatlari endi tartibga tusha boshlaydi, u ham intellektual, ham axloqan, ham ijtimoiy tomondan rivojlanib, ulg'aya boshlaydi.

Jenevalik psixolog Jan Piajening ma'lumotlariga ko'ra, 6 -7 yoshli bolaning intellektual salohiyatida keskin burilishlar ro'y beradi. Uning tafakkuri ancha yaxshi bo'lib, ma'lum tizimga, tartibga tushadi, endi u ko'proq o'zi xohlagan narsalarni xotirada olib qoladigan bo'lib boradi. Shuning uchun ham ular ba'zan ota-onalari o'ylanib qoladigan mavhum matematik vazifalarni ham o'qituvchi o'rgatganday tezda yechadigan bo'lib boradi, har xil ertaklarni eshitib yurgan bola endi real tashqi olamni, uning qanday bor bo'lsa, shunday mavjud xususiyatlari doirasida idrok qilib, anglay boshlaydi.

Boshlang'ich maktabda o'qiyotgan bola uchun shaxsiy yutuqlari – o'qishda, sportda, bolalar orasidagi nufuzi va obro'si katta ahamiyat kasb etib boradi. Bu davrda bolalar o'zlarining qaysi jinsga taalluqli ekanligini teran anglab, maktabda

„o'g'il bolalar” va „qiz bolalar” guruhi shakllanadi. Bolalik yoshida tafakkurning rivojlanishi bir qancha ketma-ket bosqichlaridan o'tadi, bu bosqichlar bir-biri bilan mahkam bog'langan bo'ladi va shuning uchun ularni qat'iy chegaralab qo'yish mumkin emas.

Maktabga tayyorgarlik davridagi rivojlanishning so'nggi bosqichida yaqqol obrazli va nutqiy tafakkur ustunlik qila boshlaydi, bu vaqtda bolalar tarbiyachilarni, ota-onalarni va katta yoshdagilarni hamma narsani bilguvchi deb qarab, ko'p savollar bilan murojaat qila boshlaydi, ya'ni bola o'z xayolida maktabga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Bolada muhokama yuritish qobiliyati uning o'z tajribasi doirasida paydo bo'ladi. Masalan, «Menga ruchka, kitob, daftar obering!», «Maktabga borishimga bir oy qoldi», «Ne uchun maktabga borish kerak?», «Oyijon nega forma kiyishadi?», «Nimaga erta turish kerak?», «Nima uchun?», «Qanday?», «Nega?» - kabi savollar bilan o'zini ruhan maktabga tayyorlab boradi.

Maktab ta'limining boshlanishi bilan bolalarda mantiqiy tafakkur maktabga qadar bo'lgandan tezroq rivojlana boshlaydi, bu tafakkur jarayonida bola tushunchalar yordamida ish ko'radi. Avvaliga tushunchali tafakkur konkret predmetlar va hodisalar bilan mustahkam bog'langan bo'ladi, lekin sekin-asta kichik yoshdagi o'quvchilarda konkret narsadan mavhumlashtirish, umumlashmalar qilish va ma'lum darajada

mavhum xulosalar chiqarish ko‘nikmasi vujudga keladi. O‘qishning boshlarida bolaga ko‘pgina hodisalarning sababli boshlanishlari tushunarli bo‘ladi, biroq bu tushunish ba‘zan uning unchalik ko‘p bo‘lmagan shaxsiy tajribasi doirasidan tashqariga chiqadi.

Shuning uchun, o‘qituvchi bolalarni yangi bilimlardan xabardor qilishi, ularning bilim doiralarini kengaytirish, nutqlarini takomillashtirib borish orqali ularning tafakkurni ham o‘stiradi. Bolalar dastlab bu ishni o‘qituvchining bevosita rahbarligida, so‘ngra esa mustaqil ravishda ham bajaradilar. Ta‘limning dastlabki kunlaridan boshlab o‘qituvchining bolani fikrlashga o‘rgatishi, tushuntirishga shoshilmasligi, balki o‘quvchiga o‘zi o‘ylab ko‘rishni taklif etishi juda muhim. Biroq o‘quvchining o‘zi tushuna olmagan, bitta ham tushuntirilmagan masalani qoldirib bo‘lmaydi. Quyi sinflardayoq bolalarni o‘quv materialini tushinib va o‘zlashtirib olishgagina o‘rgatmasdan, balki ularni qiziqqan savollariga javob topishga ham o‘rgatish kerak.

Mutaxassislarning ta‘kidlashicha hozirga qadar hammaga ma‘qul bo‘lgan an‘anaviy pedagogik-psixologik metodlar o‘qishda va korreksion ishlarda o‘z kutgan natijalarini bermayotganligi tufayli yangi metodlarni izlash zarurati paydo bo‘ldi. Ushbu avj olib borayotgan muammolarni tezroq oldini olish va samarali bartaraf etish masalasi bugungi kunning eng dolzarb muammosi bo‘lib qoldi.

### XULOSA

O‘quvchilarda tafakkur va intellektni rivojlantirishda maktab psixologining o‘rni beqiyosdir. Psixologik diagnostika, rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar, motivatsion ishlar va pedagoglar hamda ota-onalar bilan hamkorlik o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Natijada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tashabbuskor va zamonaviy bilimlarga ega shaxslarni tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
3. Nishonova Z.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2019.
4. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2019.
5. Shoumarov G‘.B. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2018.
6. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.